



O’QUVCHILAR O’ZLASHTIRISHIDA BILISH JARAYONLARINING O’RNI

Karimova Munajat Quchqarovna

Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani

41-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Maktabga kirish bolaning xayotida uning faoliyatini burilish davri xisoblanadi Kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar maydonga keladi. Bola butun bir yangi jamoalar tizimiga qo’shiladi.

O’quvchi oldiga bir qator jiddiy talablarni qo’yadigan o’qishga –yangi faoliyat turiga qo’shilish o’quvchilarni o’z hayotini qa’tiy tarzda tashkil qilishdagi qonun va tartibga bo’ysunishga majbur qiladi. O’quvchi ta’lim jarayonida ahloqiy normalar va xatti-harakatlarga poydevor qo’yiladi. Ta’limning boshlanishi bilan bola psixikasida keskin o’zgarishlar ro’y beradi, u psixologik tomondan qayta qurilishiga duch keladi. Bola o’z hayotida yangi davr boshlanganligini anglaydi, o’qish ma’syliyatiuning xatti-harakatlariga, yurish-turishlariga, xulq atvoriga katta ta’sir ko’rsatadi. Maktab yoshidagi bola maktab qoidalariga rioya qilishi, dars mashg’ulotlariga kechikmay o’z vaqtida yetib kelishi, darsda o’qituvchining tushuntirayotgan materiallarini tinglab uqib olish, tophiriqlarni o’z vaqtida bajarishi lozim. Darsda o’zini qanday tutishi, gigiyena va tozalikka rioya qilishi, o’qituvchilar va kattalar tomonidan berilgan buyruq va ko’rsatmalarni so’zsiz bajarish, jamiyat orasida o’zini qanday tutishi lozimligini bilishi kerak. Yashash sharoitidagi bunday o’zgarishlar bola psixikasining o’sishiga, xulq- atvoriga, shaxsning tarkib topishiga ta’sir ko’rsatadi. O’quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolini o’zgartiradi, uning asosiy vazifasi o’qish, bilim olish, ko’nikma va malakalarni egallash, tabiat va jamiyat to’g’risidagi qonuniyatlarni



o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Ta'lim muayyan darajada uyushqoqlik, intilish, faollik va maqsadga muvofiq faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakat o'rnini anglashilgan, rejali, aqliy mehnat egallay boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolaning harakteridagi muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtoyojlar mavjudligidir. Bu ehtoyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, tevarakatrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan iboratdir. Bu ehtoyojlar ostida o'z sumkasi, dars tayyorlash burchagi, kitob qo'yish javoniga ega bo'lishlik, kattalardek har kuni maktabga qatnash istagi yotadi. Bundan tashqari bilimlar kunidagi shodiyona, o'quvchilik safiga qabul payti, umumiy o'rta ta'lim muassasalari ma'muriyati va o'qituvchilarning unga bildirgan samimiy tilaklari, yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari bolaning xis tuyg'usiga ijobiy ta'sir etadi. Sinfidagi o'rtoqlari bilan qatorlashib saf tortib yurish, birgalashib o'ynash, oshxonaga borish, o'qituvchining o'gitlari ham bolani o'ziga rom etadi. Umuman kichik maktab yoshidagi bola o'qishning tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Ammo u kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Ma'lumki, maktablarda ta'limning dastlabki bosqichidan boshlab o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga e'tibor beriladi. Bu davr ichida bolalarda mehnatga nisbatan ongli, ijobiy munosabatda bo'lish asoslari tarkib topa boshlaydi. Ularda mehnatga havas uyg'onadi, mehnatga va mehnat ahllariga hurmat bilan qarash, ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga intilish singari fazilatlar tarkib topadi. Ta'lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan namoyon bo'lib, o'quvchida samaraliroq ishlash istagi va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch, bilimlarni o'zlashtirish, malakalarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Rag'batlantirish va jazolash meyorida bo'lsagina, ularning tarbiyaviy ta'siri ortadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatini baholash, unda o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish ahamiyatini kasb etadi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bolalarni og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf



o’quvchisi ana shu baho ta’sirida o’z faoliyatini kuchaytiradi, ijodiy izlanishga harakat qiladi. O’quvchi dastlabki paytlarda “yaxshi” yoki “yomon” bahoning farqiga bormaydi, ko’proq nechta baho olgani qiziqtiradi. Pedagogning rag’batlantirishi uning uchun eng muhim rol o’ynaydi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o’qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham pedagogning bolaga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish imkoni juda katta. Bola o’qituvchini aql-idrok sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon hatto donishmand inson deb biladi, ular siymosida o’zining ezgu niyati, orzu-istagi, ajoyib his-tuyg’ularini ro’yobga chiqaruvchi mo’tabar shaxsni ko’radi. Pedagogning obro’si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a’zolari, qarindosh-urug’lar, tanish-bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar ularning har bir so’zini qonun sifatida qabul qiladilar.

Bola o’z mehnat mahsuli sinf yoki maktab jamoasiga, jamoatchilikka manfaat keltirayotganligini bilib, undan xabardor bo’lib borsa undagi ijtimoiy foydali mehnatga bo’lgan ishtiyoq yana ham ortadi va mehnatga nisbatan faol, ijodiy va ongli munosabat shakllana boradi.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda ko’zning o’tkirligi ranglarni ajratish, eshitish qobiliyati bog’cha yoshidagi bolalarnikiga nisbatan ancha takomillashgan bo’ladi. Bu sezgilar idrok qilish jarayoni bilan chambarchas bog’liq bo’ladi. Ular bir-biriga o’xshash predmetlarni aynan bir xil narsalar deb qabul qiladilar.

Shuningdek, vaqtni idrok qilish ham sust rivojlangan. Bolalar idrokining zaif tomonlariga shu narsa sabab bo’ladi, ularda bilim va tajriba yetishmaydi. Lekin shu bilim va tajriba paydo bo’lib borgan sari bola dunyoni tobora aniqroq va to’g’riroq idrok qila boshlaydi. Kichik yoshdagi o’quvchilarning xotirasi kattalar xotirasidan ko’p jihatdan farq qiladi. 7-8 yoshdagi o’quvchilar hamma narsani so’zma -so’z va xarfma xarf o’zlashtirib olishga, xatto shunday o’zlashtirishni talab qilmaydigan, balki o’z so’zlari bilan bayon qilish mumkin bo’lgan narsalarni ham esda qoldirish layoqatiga ega bo’ladi. Ularda obrazli xotira kuchli rivojlanadi, so’z-mantiq xotirasi kamroq rivojlangan bo’ladi Maktab ta’limining sistemali olib borilishi bola tafakkuri rivojiga kuchli ta’sir qiladi. Maktab



ta'limining boshlanishi bilan bolalarda tushunchali tafakkur tez rivojlanadi. Avvaliga tushunchali tafakkur aniq predmet va xodisalar bilan mahkam bog'langan bo'ladi, lekin asta-sekin kichik yoshdagi o'quvchilarda aniq narsadan abstraktlashish, umumlashtirish va mavhum xulosalar chiqarish ko'nikmasi vujudga keladi. Ular yetarli darajada narsa va hodisalar haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. Bolalar tafakkuri bilan birga nutqi ham rivojlanib boradi. Lekin bolaning maktabga kirayotgan paytidagi nutqi ma'no tomonidan ham yetarlicha taraqqiy etmagan bo'ladi. Nutqdagi asosiy fikrlarni tushuna olmaslik, kerakli so'zlarni topib jumla tuza olmaslik, ko'pincha shunga olib keladiki, o'quvchi hamisha ham o'qib chiqilgan material mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilib bera olmaydi, uni sozma –so'z aytib berishni afzal ko'radi. Garchi bu vaqtda bolaning so'z boyligi ancha ortgan bo'lsada, u ko'pchilik hollarda passiv bo'ladi. Kichik o'quvchilarning tafakkuri, nutqi uning xayoli bilan birga rivojlanadi. Kichik maktab o'quvchilari xayolidagi obrazlar haqiqatga yaqinroq bo'lib, ularni ancha aniqroq aks ettiradilar. Kichik o'quvchilar xayoli taqlidchan xarakterli bo'ladi. Bola o'zi o'ylab topgan, eshitgan, kuzatgan narsasini tiklashga urinadi. Shuning uchun undagi xayol tiklash xarakteriga ega bo'ladi. O'qish jarayonida bu tiklovchi xayol muhim ahamiyatga egadir. Bola psixologik jihatdan o'sishi natijasida uning pedagog shaxsiga munosabati o'zgaradi, chunki unda ongli xatti-harakat ehtiyoji tug'iladi. O'quvchida bir qancha muammoli savollar vujudga keladi. U hayotda hamma narsa o'zi o'ylaganidek oson emasligini tushuna boshlaydi. Mazkur savollarga shaxsan o'zi javob topishga intiladi va bu savollarni boshqalarga ham beradi. Ta'lim jarayonida pedagog o'zining obro'sidan oqilona va odilona foydalanib, o'quvchilarda tirishqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarini shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llash kerak. Xulosa qilib aytganda, yosh davrlari psixologiyasini yaxshi bilish, o'qituvchi- o'quvchi orasidagi munosabatlarining muvaffaqiyatini belgilaydi, Ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya . E. G'oziyev. Toshkent-2002
2. Turmush tarzi, ta'lim va milliy o'ziga xoslik. A.Jabborov, Sh.Bekova. Qarshi-2002
3. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnal